



THE IMPORTANCE OF ANCESTRAL SPIRITUAL HERITAGE IN CHILD UPBRINGING

Oynisa Mukhammadieva

Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Email: oynisamu@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: family, morality, spirituality, parents, child upbringing, hadith, spiritual heritage, moral values, spiritual development, national values, education, perfect person.

Received: 12.06.26

Accepted: 13.06.26

Published: 14.06.26

Abstract: This article analyzes the importance of the spiritual heritage of ancestors in the upbringing of children within the family. The author highlights the influence of national traditions, customs, and educational ideas of Eastern thinkers on the spiritual development of the younger generation. The article also discusses the role of ancestral spiritual heritage in forming such qualities in children as humanism, kindness, and patriotism.

FARZAND TARBIYASIDA AJDODLAR MA'NAVIY MEROSINING AHAMIYATI

Oynisa Muxammadieva

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori

oynisamu@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila, axloq, ma'naviyat, ota-ona, farzand tarbiyasi, hadis, ma'naviy meros, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy kamolot, milliy qadriyatlar, tarbiya, komil inson.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasi jarayonida ajdodlar ma'naviy merosining ahamiyati tahlil qilingan. Muallif milliy qadriyatlar, urf-odatlar va sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalarning yosh avlod ma'naviy kamolotiga ta'sirini yoritadi. Shuningdek, maqolada ajdodlar ma'naviy merosidan foydalanish orqali farzandlarda insonparvarlik, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Ойниса Мухаммадиева

Профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Электронная почта: oynisamu@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: семья, нравственность, духовность, родители, воспитание детей, хадис, наследие, нравственные ценности, духовное совершенствование, национальные ценности, воспитание, совершенная личность.</p>	<p>Аннотация: В статье анализируется значение духовного наследия предков в процессе воспитания детей в семье. Автор рассматривает влияние национальных традиций, обычаев и воспитательных идей восточных мыслителей на духовное развитие подрастающего поколения. Также в статье раскрывается роль духовного наследия предков в формировании у детей таких качеств, как гуманизм, доброта и патриотизм.</p>
---	--

Kirish. Globallashuv jarayoni keng tus olib, yoshlarimizning xulq-atvori, ma'naviy kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarning kirib kelishi, G'arb davlatlariga bo'lgan qiziqishning ortib borishi va ularga ko'r-ko'rona taqlid qiluvchi yoshlarning ko'payib borayotganligi ta'lim-tarbiyada davlat va jamiyatni bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishini taqazo etadi. G'arbni biz o'rganishimiz kerak bo'lgan texnika va texnologiya yutuqlaridan foydalanishimiz ijobiy hal, biroq tarbiya, ma'naviyat masalasida bizga o'rgatadigan davlat yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Uzoq tarixga ega bo'lgan xalqimiz qadimgi davrdan to bugungi kunga qadar o'zining boy madaniy-ma'naviy merosi bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab kelgan. Mamlakatimiz hududada eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda vujudga kelgan Zardo'shtiylik diniy ta'limoti va uning muqadas manbasi Avestodan tortib XIX–XX asrlardagi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatlarigacha bo'lgan davrda yaratilgan boy ilmiy-ma'naviy qadriyatlarimizning deyarli barchasida insonning ma'naviy kamoloti ilgari surganligini ko'rishimiz mumkin. Qadimgi manba Avestoda ilgari surilgan “Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” g'oyasining o'ziyoq qadimgi davrdan boshlab xalqimiz farzandlar tarbiyasida avvalo ezgulikka jiddiy e'tibo berish masalasiga katta e'tibor qaratilganligidan guvoh beradi. Jumladan unda shunday deyiladi: “Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman. Fikr, so'z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon so'z va yomon amaldan yuz buraman” [1]. Ushbu g'oyani o'zining ilmiy merosida tayanch tushunchaga aylantirgan Abu Nasr Forobiyda ham ko'rishimiz mumkin. Forbiyning “Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o't–kir zehn-idrok bo'lishi bilan birga fazilati ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini

saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yurituvchi deb atash mumkin” [2], degan hikmatining mazmunini ham aynan “Avesto”dagi ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal tushunchalari tashkil etadi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, buyuk mutafakkirlar va allomalar tomonidan yaratilgan ma‘naviy meros yosh avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz o‘z asarlarida yaxshilik, ezgulik, insonparvarlik, halollik, mehr-oqibat, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga mehr ko‘rsatish kabi yuksak axloqiy fazilatlarni targ‘ib etganlar. Bu g‘oyalar oilada farzand tarbiyasining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma‘naviy dunyoqarashini boyitishda ajdodlar ma‘naviy merosidan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oilada farzand tarbiyasi jarayonida ajdodlar ma‘naviy merosining o‘rni va ahamiyatini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oila – tarbiya maskani. Xalqimizda bekoriga “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol aytilmagan. Agar oiladi ota-onalar bolar tarbiyasida shaxsiy iborat ko‘rsatsalar, ajdodlarimizning boy ma‘naviy mersidan unumli foydalansalar, jumladan diniy, milliy qadriyatlarimizda keltirilgan tarbiyaviy fikrlar asosida farzandlarga o‘git bersalar unday oilada kamol topgan farzandlar komil inson bo‘lib yetishadilar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaganidek, “Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta‘lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o‘rgatuvchi maktab bu – oiladir” [3]. Kitobga mehr-muhabbat, go‘zal axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq, qadriyatlarga sadoqat kabi insoniy fazilatlar oiladi kamol topadi. Yoshlarni ma‘naviy kamol topishi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omilidir. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasi, farzandlarimiz tarbiyasiga davlat siyosati darajasida qaralayotgani ham bejiz emas. Yangi O‘zbekistonning “Uchinchi renesans” g‘oyasini amalga oshiruvchilari ham yuksak ilm-salohiyatga ega bo‘lgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat va hurmat bilan kamol topayotgan yoshlarimiz ekanligini Davlatimiz rahbari har doim ta‘kidlab kelmoqda. “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [4]. Albatta, yoshlarimizni barkamol avlod bo‘lib yetishi bu faqatgina davlatning ishi emas, balki butun jamiyatimizning vazifasidir. Bu vazifaning tamal toshi Oiladan boshlanishini unutmasligimiz kerak. Har bir oilada buyuk ajdodrimiz tomonidan yozib qoldirilgan kitoblarning, islom dinimizning muqaddas manbalarini saqlanishi va ulardan ota-ona rahnamoligida farzandlarni bahramand bo‘lishi tanlagan yo‘limizda muvaffaqiyatli omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning 2030 yilgacha

bo'lgan strategiyasida ham yoshlarning ma'naviy kamol topishida keltirilgan omillar orasida ma'naviy merosga alohida e'tibor qaratilgan. Shavkat Mirziyoevning Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asarida bu borada qimmatli fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, "Yangi O'zbekiston strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo'ladigan tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni bizning eng katta boyligimiz - xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati mavjudligidir. Aynan ana shu omil Yangi O'zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma'naviy va madaniy faoliyat, ta'lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo'lmoqda" [5]. Yoshlarni kamol toptirishda har bir oilada o'rganilishi zarur bo'lgan adabiyotlar tarkibida Al-Buxoriy, At-Termiziy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Hamid G'azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdurauf Fitrat, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, O'tkir Hoshimov, Erkin Vohitdov kabi zabardast mutafakkir, faylasuf, shoir va adiblarimiz yozib qoldirgan noyob kitoblarning bo'lishi, bu kitoblar oila davrasida mutolaa qilinishi bugungi yosh avlodning kamol topishida muhim ahamiyatga egadir. Ular o'z asarlarida insonni yaxshi yo'lga boshlovchi, komillik sari eltuvchi fazilatlar, ilm-ma'rifat haqida bayon etishgan.

Abu Homid al-G'azzoliyning «Mukoshafatul Kulub» («Qalblar kashfiyoti») asarida insonning go'zal axloqi haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Unday shunday deyiladi: "Go'zal axloq - sen bilan qarindoshlik rishtalarini uzganlarga kengroq va rahm-shafqatliroq bo'lishing, sendan yaxshilikni ayaganlarga yaxshilik qilishing va senga zulm o'tkazganlarni afv etishingdir!" [6]. Bu yerda mutasavvuf alloma insonlarni rahm-shafqatli, qarindoshlik rishtalariga sadoqat, insonlarga yaxshilik qilish, kechirimli bo'lish kabi axloqiy fazilarni egallashga chaqiradi.

Tasavvuf axloqshunosligining ulkan namoyandalaridan biri buyuk yurtdoshimiz Shayx Aziziddin Nasafiydir axloqiy muammolarni o'zining "Zubdat ul-haqoyiq" (Haqiqatlar qaymog'i), "Insoni komil" (Komil inson) kabi asarlarida bayon etgan. Uningcha, komil inson, eng avvalo, yuksak axloq egasi: uning yerdagi vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasm-rusumlarni yo'qotish, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun – qoidalarni joriy etish, odamlarni Xudo tomon da'vat qilishdir. Bu darajaga yetishish uchun esa inson o'zini anglab yetishi kerak. Uning aytishicha, o'zini anglamagan kishi hech narsani anglamay dunyodan o'tadi. O'zini anglash uchun inson xayrli so'z, xayrli ish, xayrli xulq, ma'rifatli ish qilish kerak. Komillik – inson degan ulug' nomga mansub bo'lib, unga inson qadam-baqadam yetishib boradi, lekin bu darajalar mutlaq diniylikni taqozo qilmaydi, balki dunyoviy hayotda ham pok bo'lishi kerak [7]. Aziziddin Nasafiy inson kamoloti haqida mulohaza yuritganda,

axloq masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Buni biz uning quyidagi fikri orqali bilishimiz mumkin: "Ey darvesh, axloqiy xislatlarla bezanmagan, o'zini tanimagan odamlar ko'p, ammo ular hali komil emas. Go'zal xislat-la bezangan bo'lib, lekin o'zini tanimaganlar bor. Bular ham komil emas. Binobarin, insonning kamolotga erishishi tugal axloqqa ega bo'lish va o'z-o'zini tanish bilan amalga oshadi" [8], - deydi Aziziddin Nasafiy.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ham qadimgi turkiy xalqlarning insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi ana shunday tarbiya omillari o'zining nafis va ibratomuz tarzda ifodlangan go'zal namunalaridan biridir. «Qutadg'u bilig» dostonidagi komil inson tarbiyasiga oid pand-nasihati va o'g'itlarni mohiyat e'tibori bilan quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: Odob-axloq haqidagi o'g'itlar. U o'z ichiga ezgulik, insoniylik, aql-zakovat, rostgo'ylik, halollik, mardlik, to'g'rilik, adolat, saxovat, himmat, kamtarlik, mehr-shafqat, o'zaro g'amxo'rlik kabi fazilatlar to'g'risidagi pandnomalarni qamrab oladi. Ta'limiy o'g'itlar. Bunga bilim olishning afzalligi, jaholat va nodonlik haqidagi pandnomalar kiradi. Farzand tarbiyasiga oid o'g'itlar. Bunga otalarning o'z farzandiga nasihatlarini xususidagi o'g'itlar kiradi. Uquvli va aql-idrokli odam fahm-farosatli, uddaburon bo'lib har qanday mushkulni osongina hal etishi, hamma narsa qo'lidan kelishi bilan ajralib turadi. Bunda u avvalo o'z bilimiga tayanadi. Bilim, alloma nazarida nafaqat ezguliklarga eltuvchi, yaxshiliklar ijodkori, balki hamma narsaning yechimini ko'rsatuvchi barcha chigallikning hal qiluvchisidir.

Bilimla yechilur hamma berk tugun,
Bilim va zakovatga intil kunun,
Bilimni sol ishga, necha bilmagan,
Yana o'rganaver, g'animat bu kun [9].

Mutafakkir bu misralari orqali inson hayotidagi muammolar, jaholat va noaniqliklarni ilm bartaraf etishini ilgari suradi. Ilm insonni haqiqatga yaqinlashtiradi. Shuning uchun ham ko'p sharq mutafakkirlari ilmni ma'naviy ozodlikka olib boruvchi kuch deb hisoblagan. Yusuf Xos Hojib "Bilim va zakovatga intil kunun", degan misralarida insonning doimiy komillikka intilishi g'oyasini ko'rish mumkin. Ya'ni inson faqat yashabgina qolmasdan, o'z aqli va tafakkurini rivojlantirib borishi kerak. Bu - ma'naviy kamolotning asosiy shartlaridan biri. Yuqoridagi to'rtlikning "Bilimni sol ishga, necha bilmagan" strlari orqali mutafakkir haqiqiy bilim amal bilan bog'langan bilim hisoblanishini ham nazardan qochirmaydi. Ya'ni, agar bilim amalda qo'llanmasa, u to'liq qiymatga ega bo'lmaydi. Inson bilimni hayotda ishlatganda, yana yangi haqiqatlarni kashf etadi. Shundan kelib chiqqan holda, "Yana o'rganaver, g'animat bu kun", deydi mutafakkir. Ya'ni, Inson hayotida vaqtning qadri va umr bo'yi bilim olish g'oyasini ta'kidlaydi. Ma'naviy taraqqiyot uzluksiz jarayon bo'lib, inson doim izlanishda bo'lishi kerak.

Yusuf hos Hojib insonlarni ilmga muhabbat, zakovatni rivojlantirish, bilimni amalda qo'llash va umr bo'yi o'rganish g'oyasiga chorlaydi. Falsafiy jihatdan esa u inson kamoloti va ma'naviy yuksalishning asosi ilm ekanini ta'kidlaydi.

Demak, bilim odamlarga kuch-qudrat bag'ishlaydi, barcha tilsimlarni ochguvchi kalit hisoblanadi. Bilim orqaligina inson mukammallashadi, koinot sarvari darajasiga ko'tariladi. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda «Qutadg'u bilig» dostonida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy fikrlardan foydalanishning katta imkoniyatlari bor. Yusuf xos Hojib ilgari surgan komil inson g'oyasini oilada chuqur o'rganib, yoshlar ongiga singdirishimiz zarur. Chunki, bu g'oyalar bundan ming yillar muqaddam bayon etilishiga qaramay, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Negaki o'smirlar o'rtasida turli jinoyatlarning ko'payishi, yoshlarning noaxloqiy yo'lga kirishlarining asosiy sababi oilada tarbiyaning sifatsizligi, ota-onalarning bola tarbiyasi bilan kam shug'ullanishlari natijasi ekanligiga shakshubha yo'q. Buning oldini olish uchun bog'chalarda, maktablarda, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida xalqimizning buyuk donishmandlari ijodiga mansub adabiy-badiiy hamda madaniy merosdan o'rinli va unumli foydalanish zarur. Buyuk allomaning til odobi bilan aloqador bo'lgan serma'no fikrlari bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Xalq donishmandligining sarchashmasini o'zida to'liq ifoda etgan bu boqiy asar komil inson tarbiyasiga oid qarashlari bilan hozirgi davrimizga hamohangdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida buyuk donishmandlarimizning ijodini o'rganishga bag'ishlangan tadbirlarni ko'proq tashkil etish kerk. Bu borada Yusuf Xos Hojibning Qutadg'u bilig asari va unda bayon etilgan muomala odobi, tilga e'tibor, davlat va oilani boshqarish usullari, halollik, rostgo'ylik, ilm-fanga hurmat, insonni ulug'lash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik haqidagi g'oyalar muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yusuf xos Hojib o'z asarida oilada bola tarbiyasiga to'xtalar ekan, avvalambor, otaning oiladagi o'rnini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, har bir ota o'z farzandining bilimli, tarbiyali va biror kasb-hunar egasi bo'lishi ustida qayg'urishi lozim.

Sharq donishmandlarining durdona asarlari asosida yoshlarni kamol toptirishda Alisher Navoiy, Mirzo Bedillarning ijodiga yoshlarni qiziqtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota bobolarimiz tomonidan "Navoiyxonlik", "Bedilxonlik" kechalarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad ham o'z davrida komil insonlarni tarbiyalash bo'lgan.

Mirzo Bedil yaxshilik, axloqiy poklik haqida fikr bildirganda, bu tushunchalarning aql - idrok, ilm-ma'rifat bilan bir butun holda olib qarashga harakat qiladi:

به حسن خلق بيدل تا توان در جنت آسودن

چه لازم در دل دوزخ نشستن از شرارتها [10]

Bu bayt Mirzo Bedil axloqiy-tasavvufiy g‘oyalarini ifodalaydi. Unda insonni yaxshi xulq, poklik va ezgulikka chaqirish g‘oyasi bor. Qisqacha ma’nosi:

”به حسن خلق بیدل تا توان در جنت آسودن“

Ya’ni: Ey Bedil, inson yaxshi xulq-atvor bilan jannatday osoyishta hayotga erisha oladi. Yaxshi axloq insonga ruhiy tinchlik beradi.

”چه لازم در دل دوزخ نشستن از شرارتها“

Ya’ni: Nega inson yomonlik va yovuzlik qilib do‘zax kabi azobli holatda yashashi kerak? Yomon ishlar insonni ruhiy azobga soladi.

Faylasuf-shoir insonni yaxshi xulq, mehr-shafqat va ezgulik bilan yashashga da’vat qiladi. Chunki yaxshi axloq insonni “jannatga”, yomonlik esa “do‘zaxga” olib boradi.

Yaxshi xulq bilan topar inson jannat osoyish,

Bedil der: ezgulikdir dilga haqiqiy rohish.

Nega yomonlik bilan do‘zaxda yashar inson,

Shafqat yo‘lin tutsang, bo‘lar hayot ham ravish.

Mirzo Bedil baytlarida insonning ma’naviy kamoloti, hayot ma’nosi va axloqiy poklik masalalari chuqur falsafiy ruhda yoritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoir inson hayotini bir karvon safarga qiyos qilib, odamlar nafs yo‘lida yurib, ko‘pincha ma’nosiz mashaqqatlarga duch kelishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, inson dunyoviy orzular ortidan quvib, haqiqiy ma’rifatdan uzoqlashsa, uning tafakkuri va izlanishlari ham samarasiz bo‘lib qoladi. Bedil falsafasida haqiqiy kamolot ilm, tafakkur va axloqiy poklik orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois shoir insonni o‘z nafsini tarbiyalashga, ma’no va haqiqatni anglashga da’vat qiladi. Uning ta’kidlashicha, yaxshi xulq va ezgu amallar inson qalbiga osoyish baxsh etadi va uni ma’naviy jihatdan yuksaltiradi. Aksincha, yomonlik va adovat insonni ruhiy azobga solib, hayotni do‘zax kabi og‘ir holatga aylantiradi.

Shu ma’noda Bedil insonni ezgulik, ma’rifat va go‘zal axloq yo‘lida yashashga chorlaydi. Uning she’riyatidagi ramzlar va badiiy obrazlar insonning ichki dunyosi, ruhiy uyg‘onishi va ma’naviy poklanishi g‘oyasini ifodalaydi. Demak, Bedil ta’limotiga ko‘ra, insonning haqiqiy baxti va kamoloti aql, ilm va yaxshi xulq bilan yashash orqali namoyon bo‘ladi.

Bugun ota-onalar farzandlariga qimmatbaho kiyim-kechak, telefon yoki moshina olib berishga emas, balki donishmandlarimizning asarlarini o‘qitishga qiziqish uyg‘otsalar va ular bilan birgalikda kitob mutolasini yo‘lga qo‘ysalar ko‘plab ijtimoiy illatlarni oldi olingan bo‘lard. Oilalarda va jamiyatda yuzaga kelgan ko‘plab ijtimoiy muammolarning sababi ota – onalarni e’tiborsizligi, ilmsizligidir. Oilada avvalo ota-onalarning o‘zlari kitobga mehr qo‘yib ilmu-

ma'rifatli bo'lsa, farzandlarini ham kitob bilan oshino qilsa, buyuk ma'naviy merosimizdan, donishmandlarimizning falsafiy, didaktik asarlaridan foydalanib chiroiyli tarbiyani yo'lga qo'ysalar oila ham, jamiyat ham barqaror va farovon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, oilada farzand tarbiyasida ajdodlar ma'naviy merosi muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklar, axloqiy g'oyalar va hayotiy tajribalar yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ular orqali farzandlarda insonparvarlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, halollik va mas'uliyat kabi yuksak insoniy fazilatlar shakllanadi. Shuningdek, ajdodlar ma'naviy merosi oila muhitida farzandlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Ota-onalar va tarbiyachilar ushbu boy merosdan unumli foydalangan holda yosh avlodni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha oladigan shaxslar qilib tarbiyalashlari mumkin. Demak, ajdodlar ma'naviy merosini chuqur o'rganish va uni oila tarbiyasi amaliyotiga tatbiq etish yosh avlodning ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Buyuk ma'naviy merosimizdan ota-onalarning farzand tarbiyasida foydalanishi quyidagi natijalarga olib keladi:

Birinchi, axloqiy tarbiyani shakllantiradi. Ajdodlarimiz asarlarida odob, halollik, mehr-shafqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi qadriyatlar keng targ'ib qilingan. Ota-onalar farzandlarga shu g'oyalarni tushuntirsa, bolada yaxshi xulq-atvor shakllanadi.

Ikkinchi, Ilm-ma'rifatga muhabbat uyg'otadi. Sharq mutafakkirlari asarlarida ilm va bilimning qadri ulug'langan. Ularning fikrlari farzandlarda ilmga qiziqish va izlanish ruhini kuchaytiradi.

Uchinchi, Milliy o'zlik va qadriyatlarni anglatadi. Ma'naviy meros orqali bolalar milliy an'analar, urf-odatlar va madaniy merosni anglaydi. Bu esa ularda vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

To'rtinchi, Ma'naviy barkamollikni ta'minlaydi. Buyuk mutafakkirlar ta'limotida insonning komillikka intilishi asosiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Oilada bu g'oyalar asosida tarbiya berilsa, farzandlar ma'naviy jihatdan barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

Beshinchi, Oila muhitini mustahkamlaydi. Ajdodlar ta'limotida ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, o'zaro mehr-oqibat kabi tushunchalar muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlar oilada sog'lom muhit yaratishga yordam beradi.

Bir so'z bilan aytganda, Buyuk ma'naviy merosimiz farzand tarbiyasida axloqiy tarbiya, ilmga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va ma'naviy kamolotni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun ota-onalar bu merosdan samarali foydalanishi farzandning barkamol inson bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авесто. Т., Шарк, 2001. – Б. 34
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри– Т., Янги аср авлоди, 2016.– Б.281.
3. Shavkat Mirziyoev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farvon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Т., O'zbekiston, 2016.
5. Mirziyoev Sh.M.Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
6. Абу Номид Ғаззолий. Мукошафатул Қулуб. Т., Адолат, 2002. –Б.246.
7. Muxammadiyeva Oynisa, Sobirova Marhabo. Sharq va G'arb ma'naviyati. Toshkent. Bookmany print, 2022. – Б.163.
8. Muxammadiyeva Oynisa, Sobirova Marhabo. Sharq va G'arb ma'naviyati. Toshkent. Bookmany print, 2022. – Б.163.
9. Юсуф Хос Ножиб. Қутадғу билиг. Т., Ғофур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1971. –Б.77
10. Мирзо Абдулқодир Бедил. Девон. Тошкент: 1333. Тошбосма.